

TALABALAR ORASIDA KIBERTAHIDDLAR (CYBERBULLYING, PHISHING) XABARDORLIGINI OSHIRISH DASTURI**Sharipov Baxtiyor***Buxoro, O‘zbekiston,**tel: +99891-241-83-65,**E-mail: bakhtiyor114@gmail.com***Annotatsiya**

Ushbu maqolada talabalar orasida cyberbullying va phishing kabi kibertahdidlar 2024–2025 yillardagi ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Digital texnologiyalar kundalik hayotimizga keng kirib kelgani sababli yoshlar onlayn xavfga duchor bo‘lmoqda. Maqola cyberbullying va phishingning sabablari, tarqalish darajasi, oqibatlari va oldini olish yo‘llarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, talabalar orasida kiberxavfsizlik bo‘yicha xabardorlikni oshirish strategiyalari ham ilmiy asosda tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: *cyberbullying, phishing, talabalar, kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik, onlayn tahdidlar.*

Abstract

This paper examines cyber threats among students, focusing on cyberbullying and phishing, using recent (2024–2025) academic research. Increased digital engagement exposes students to higher online risks. The study discusses prevalence, causes, effects, and prevention strategies. Awareness programs for improving cybersecurity literacy among students are emphasized.

Keywords: *cyber threats, cyberbullying, phishing, students, cybersecurity, digital literacy.*

Аннотация

В статье рассматриваются современные киберугрозы среди студентов, включая кибербуллинг и фишинг, с опорой на исследования 2024–2025 годов. Быстрое развитие цифровых технологий увеличивает риск попадания студентов под влияние онлайн-угроз. Анализируются причины, распространение, последствия и стратегии предотвращения киберугроз. Особое внимание уделено программам повышения осведомленности студентов о кибербезопасности и цифровой грамотности.

Ключевые слова: *киберугрозы, кибербуллинг, фишинг, студенты, кибербезопасность, цифровая грамотность.*

Internet va raqamli platformalarga talabalar e‘tiborining ortishi ularni cyberbullying va phishing kabi kibertahdidlarga duchor qiladi. Cyberbullying onlayn muhiti orqali takroriy

tahqirlash va psixologik bosimni anglatadi, phishing esa soxta xabarlar orqali shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashga qaratilgan kiberhujumdir. 2025 yilda o'tkazilgan so'rovda respondentlarning 58 % i kamida bir marta cyberbullyingga duch kelganini bildirgan, 33 % esa so'nggi oyda uchrashganini qayd etdi [1]. Bu tahdidlarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Cyberbullying yoshlarning psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 2024 yilda e'lon qilingan tadqiqotda cyberbullyingning tarqalishi va oqibatlarini tahlil qilindi [2]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, cyberbullying depressiya, stress va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. 2025 yilda universitet talabarlari orasida o'tkazilgan tadqiqotda cyberbullying ruhiy holat bilan bevosita bog'liqligi aniqlangan [3]. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari cyberbullyingni aniqlash va oldini olishda samarali ekanligi ta'kidlangan [4].

Phishing — bu foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini soxta xabarlar orqali o'g'irlashga qaratilgan kiberhujumdir. 2024 yilda e'lon qilingan maqolada Gen Z avlodi phishing tahdidlariga nisbatan qanday xatti harakat qilishi o'rganilgan va foydalanuvchilarning onlayn odatlari phishingga uchrash ehtimolini oshirishi aniqlangan [5].

Boshqa tadqiqot phishingni oliy ta'lim muhitida o'rganib, "Health Belief Model" bilan foydalanuvchi xulqini tahlil qilgan. Natijada xabardorlik phishingga qarshi qaror qabul qilishni sezilarli darajada oshiradi [6]. 2024 yilda talabalar orasida phishing tahdidi yuqori ekanligi va raqamli savodxonlikni oshirish zarurligi aniqlangan [7].

Phishing va cyberbullying tahdidlarini kamaytirish uchun maxsus dasturlar muhim deb topilgan. 2024 yilda o'tkazilgan tadqiqot xabardorlik treninglari phishingni aniqlash qobiliyatini oshirishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, xabardorlikni oshirish amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiyalar va foydalanuvchi xulqini o'zgartirishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Cyberbullying anonimli onlayn muhitda sodir bo'lib, tez tarqaladi. Tadqiqotlarga ko'ra, depressiya va ruhiy stress cyberbullyingga duchor bo'lishni prognoz qiluvchi muhim omil hisoblanadi [6]. Cyberbullyingning oqibatlarini victim va bully tomonida turlicha: victim ijtimoiy izolyatsiya va o'zini past baholash bilan yuzma-yuz bo'ladi, bully esa murakkab ijtimoiy oqibatlarga duch keladi [7].

Phishingning samaradorligi foydalanuvchilarning xatti harakati va onlayn odatlariga bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchilarning e'tiborsizligi phishingga uchrash ehtimolini oshiradi [8]. Shu sababli, phishingga qarshi kurashda xabardorlik va raqamli savodxonlikni oshirish zarur [9].

Talabalar orasida cyberbullying va phishing tahdidlarini kamaytirish hamda raqamli xavfsizlikni oshirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan strategiyalar tavsiya etiladi:

1. Tizimli kiberxavfsizlik treninglari: Talabalar uchun phishing va cyberbullyingni aniqlash, xatti-harakatlarni boshqarish va xavfsizlik choralari qo‘llash bo‘yicha muntazam treninglar tashkil etilishi lozim.

2. Raqamli savodxonlik va etik kurslar: Onlayn muhitda xavfsiz xatti-harakatlar, axborotlarni himoya qilish va kiberhujumlardan saqlanish qoidalari bo‘yicha maxsus kurslar joriy etilishi zarur.

3. Simulyatsion mashg‘ulotlar: Real hayotiy phishing va cyberbullying senariylarini takrorlash orqali talabalar xatti-harakatlarini amaliy tarzda sinash va o‘rgatish samarali bo‘ladi.

4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi: Cyberbullying qurbonlari uchun psixologik maslahat va stressni kamaytirish xizmatlari tashkil etilishi, ijtimoiy yordam tizimlarini kengaytirish muhimdir [10].

5. Monitoring va baholash mexanizmlari: Universitetlar kiberxavfsizlik bo‘yicha dasturlar samaradorligini baholash va talabalarning xabardorlik darajasini kuzatish mexanizmlarini joriy qilishi lozim [11]

So‘nggi 2024–2025 yillardagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, cyberbullying va phishing kabi kibertahdidlar talabalar orasida keng tarqalgan va ularning ruhiy salomatligi, ijtimoiy faoliyati hamda shaxsiy ma‘lumotlarining xavfsizligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi [11]. Cyberbullying ruhiy stress, depressiya va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi, phishing esa shaxsiy va moliyaviy ma‘lumotlarni yo‘qotishga olib kelishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan [12]. Shu sababli, tahdidlarni oldini olish nafaqat texnologik choralarni, balki ta‘limiy, psixologik va amaliy yondashuvlarni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar orasida tizimli kiberxavfsizlik xabardorligini oshirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va real hayotiy senariylar orqali mashg‘ulotlar o‘tkazish eng samarali yondashuv hisoblanadi [4][7][8]. Shuningdek, kiberxavfsizlik bo‘yicha monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etish, talabalar xatti-harakatlarini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi, bu esa tahdidlarni oldini olish strategiyasining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Polvanova, D. T. (2025). Analysis of The Factors Contributing to The Prevalence of Cyberbullying Threats. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 5(06), 30–37.

2. European union agency for cybersecurity (enisa). *Cybersecurity Threat Landscape 2023*.

3. Sergeeva, O. V., & Zheltukhina, M. R. (2025). Psychological well-being as a predictor of cyberbullying victimization in university students. *Frontiers in Education*.
4. Baños-Ramos, A., et al. (2025). Utilizing CNet to effectively address and combat cyberbullying. *Scientific Reports*.
5. Gan, C. L., Lee, Y. Y., & Liew, T. W. (2024). Predicting phishing susceptibility: cyber-routine activity theory and HSM. *Humanities and Social Sciences Communications*.
6. Okokpujie, K., et al. (2024). Students' susceptibility and awareness to phishing in academic environments. *Iieta Research*.
7. Okeke, O. C., & Chinedum, E. A. (2024). Awareness of phishing attacks in higher learning institutions. *IJRIAS*.
8. WJARR. (2024). Cybersecurity Awareness Training Effectiveness.
9. O‘zbekiston respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. – Kiberxavfsizlik strategiyasi 2022-2025.
10. Muzaffarxonov S., Mirzaakbarov D. “Sun’iy intellekt yordamida pochta xizmatini tashkil qilish”. – Miasto Przyszłości Kielce, 2023
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kiberbulling>
12. <https://blog.avast.com/cyberbullying-vs.-trolling-heres-how-to-differentiate-between-them>